

«YETTI» RAQAMINING LINGVOMADANIY TADQIQI**Pazeledinova Sayyora Tursinboy qizi**

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti III bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada antroposentrik paradigma asosida shakllangan tilshunoslikning yangi yo'nalishi lingvokulturologiya fani bo'yicha fikrlar va kundalik hayotimizning turli jabhalarida foydalaniladigan «yetti» raqamining ajoyibotlari turli xalqlarda xosiyatli raqam sifatida qaralishi to'g'risida faktlar beriladi.

Kalit so'zlar: antroposentrik paradigma, madaniyat, xosiyatli «yetti» raqami, diniy qarashlar.

Barchamizga ma'lumki, har bir xalqning tilida o'sha xalqning yashash tarzi, urf-odatlar, mentaliteti, tarixi, madaniyati, ruhiyati, qarashlari o'z ifodasini topadi. Mashhur tilshunos olim Y.L.Vaysgerber "til o'z egasiga boshqa tillardagidan farqli bo'lgan dunyoni umumiy ko'rish tarzini ato etishini", "ona tili va har bir insonning ruhiy shakllanishi o'zaro chambarchas bog'liqligini" va "shuning uchun ham tilshunoslik tillarni xalqlar madaniyatining ko'zgusi sifatida o'rganmog'i lozim" ekanligini alohida ta'kidlaydi¹.

So'nggi yillarda dunyo tilshunosligida antroposentriзм paradigmasi doirasida shakllangan lingvokulturologiya (lisoniy madaniyatshunoslik yoki lingvomadaniyatshunoslik) yo'nalishi tildagi madaniy omil va insondagi lisoniy omilga qaratilganligi bilan boshqa yo'nalishlardan ajralib turibdi. Lingvokulturologiya tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik fanlari hamkorligida, ammo tilshunoslikning ustuvorligida yuzaga kelgan eng yosh yo'nalishdir, shuning uchun ham bu yangi yo'nalish bevosita til haqidagi ilm bag'rida dunyoga kelgan².

Madaniyat deganda har bir xalqning o'zi yashab turgan muhiti, yashash tarzi, dunyoqarashlarining farqlanishi bilan birga, o'xshashliklari ham seziladi. Aksariyat millat vakillari «yetti» raqamini ramziy, xosiyatli, omadli, mo'jizaviy raqam deb biladi. Hayotda «yetti» raqami bilan bog'liq bir qancha biz e'tibor bergan va bermagan ajoyibotlar bor: «yetti» mo'jiza, «yetti» xazina, «yetti» ilm, «yetti» kun, «yetti» modda, «yetti» nota, «yetti» avlod, «yetti» iqlim va boshqalar. Quyida ko'pchilik uchun xosiyatli raqam sifatida ko'riladigan yetti raqamining biz e'tibor bergan va bermagan o'rinlarini misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Dunyoning yetti mo'jizasi:

1. Misr ehromlari.
2. Semiramida osma bog'lari.
3. Artemida ibodatxonasi.
4. Galikarnas dahmasi.
5. Zevs haykali.
6. Rodosdagi haykal.
7. Iskandariya mayog'i.

Yetti xazina:

1. Sigir – ro'zg'orning qassobi, baqqoli.
2. Asalari – oilaning tabibi.
3. Ipak qurti - qizlarning sepi.
4. Objuvoz – qozonning yog'i.
5. Tegirmon – qorinning belbog'i.
6. O'rmon – imorat suyagi, qozon olovi.
7. Tovuq – obiyovg'on, dori-darmon.

Yetti ilm: grammatika, ritorika, dialektika, geometriya, arifmetika, musiqa, astronomiya.

Hafta kunlari: dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma, shanba, yakshanba.

¹ Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. – М.: Эдиториал УРСС, 2004. - С120, 135,173.

² Mahmudov N. Ma'rifati manzillari. – T.: Ma'naviyat, 1999. -b59.

Yetti musiqa notasi: do, re, mi, fa, sol, lya, si.

Yetti avlod: farzand, nevara, chevvara, evera, pannevara, ovora, begona.

Yetti rang: oq, sariq, qizil, qora, ko'k, yashil, olovrang.

Biz uchun ham diniy ilmlarga ko'ra 7 raqami ramziy xususiyatga ega. Buni musulmon dinining birinchi sharti iymon keltirish ekanligi va iymonda 7 farzning mavjudligidir, shu bilan birga, do'zaxning 7 darvozasi borligidir.

Ba'zi rivoyatlarda kelishicha, jahannam yetti qavatdan iborat bo'lib, har qavatining alohida eshigi bo'lar ekan. Har qavati bir-biridan ashaddiyroq bo'lar ekan. Chunki gumrohlik, xatkorlik ham har xil bo'ladi. Qilgan gunohi darajasiga qarab kofirlar turli qavatlarga kiritiladi.

Muqaddas Makka shahridagi "Zam-zam" suvining paydo bo'lishi ham 7 raqami bilan bog'liq. Bitiklarda yozilishicha, Ibrohim (a.s) birinchi xotini Sora rashkidan bibi Hojarni go'dagi Ismoil bilan odam yashamas joyga tashlab kelishni ixtiyor etadi. Ibrohim (a.s) ularni olib sahroning o'rtasiga borganda bibi Hojarga "Sizlar shu yerda yashab turinglar", - deydi.

Bibi Hojar: - Bu sizning amringizmi yoki Allohningmi? - dedi.

Ibrohim (a.s.): - Allohning amri, - dedilar.

Bibi Hojar onamiz: Unday bo'lsa siz ketavering, bizni Allohning o'zi asrab oladi, - deb javob beradi. Kun issiq. Yegani na ovqat, na suv bor. Go'day yig'lay boshlaydi. Bibi Hojar Safo - Marva orasida suv izlab, yetti marta yugurganida go'dakning to'voni ostidan suv chiqib, bola oqib borardi. Bibi Hojar suvga "Zam - zam" deb qo'lini urganda, suv to'xtaydi, o'sha yerda buloq paydo bo'ladi. Shu - shu hozirgacha buloq oqib turadi. Hojilarimizning Safo - Marva orasida yetti marta yugurishi o'shandan qolgan.

Yuqorida keltirilganlardan ma'lum bo'ldiki, biz anglab yetmagan yana qanchadan qancha sir - sinoatlar bor. Yuqoridagilardan kelib chiqib, buni shunday yoki shunchaki tasodif ekanligiga ishonish oson emas. Ammo aniqki, ushbu jumboq sirini anglashga bo'lgan intilish insonni hech qachon tark etmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Вайсгербер Й.Л. Родной язык и формирование духа. – М.: Эдиториал УРСС, 2004.
2. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. – T.: Ma'naviyat, 1999.
3. www.ginnes.uz
4. www.zamin.uz